

Mavzu: O`zbekiston Respublikasida Oliy va O`rta maxsus ta`lim sohasini rivojlantirishdagi hukumat qarorlari, farmonlari va ularning bajarilishi.

BAJARDI: ESONBOYEV O.

QABUL QILDI: MURODOV SH.

Prezidentning 2018 yil 5 apreldagi «Respublika oliy ta`lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3655-son qarori

- ▶ o'rtacha 25 foizga va stajyer-o'qituvchi hamda fan doktori ilmiy darajasiga ega professor ish haqining miqdorlari o'rtasidagi tafovutni ikki baravargacha oshirish
- ▶ ilmiy-tadqiqot muassasalarining fundamental, amaliy tadqiqotlar ilmiy-texnik dasturlarini amalga oshirish va innovatsiya ishlarida ishtirok etayotgan ilmiy xodimlarining — o'rtacha 25 foizga va stajyer-tadqiqotchi hamda fan doktori ilmiy darajasiga va professor ilmiy unvoniga ega bosh ilmiy xodim ish haqining miqdorlari o'rtasidagi tafovutni ikki baravargacha oshirish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilgan.
- ▶ bazaviy doktoranturada ta`lim olayotgan shaxslarga – ilmiy unvon yoki ilmiy darajaga ega bo'lmagan (2 yilgacha ilmiy faoliyat tajribasiga ega bo'lgan) kichik ilmiy xodimning lavozim maoshi bazaviy miqdorlariga tenglashtirilgan stipendiyalar
- ▶ doktoranturada ta`lim olayotgan shaxslarga – fan nomzodi (yoki falsafa doktori (PhD) darajasiga va xorijiy davlatlarning tegishli mutaxassislik bo'yicha unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) ilmiy darajasiga yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan yetakchi ilmiy xodimning lavozim maoshi bazaviy miqdorlariga tenglashtirilgan stipendiyalar to'lanadi

# O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi PQ-3290-son qarori

- ▶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son qaroriga muvofiq hamda oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun munosib nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish, o'quvchilarning tegishli mutaxassisliklar bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirishlari uchun zarur va yetarli bo'lgan, chuqurlashtirilgan nazariy va kasbiy tayyorgarligini ta'minlash maqsadida

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan mavjud akademik litseylarning faoliyati kompleks tahlil qilinganligi, moddiy texnika bazasi xatlovdan o'tkazilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin

Akademik litseylardan uzoq joylashgan hududlardan qabul qilingan o'quvchilar belgilangan tartibda yotoqxonalar hamda ota-onalar to'lovi hisobiga (har oyda eng kam oylik ish haqining bir baravari miqdorida) xarajatlarni qisman qoplagan holda, imtiyozli oziq-ovqat bilan ta'minlanadilar

# Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida jami 4916 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 9680 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi, 211 ta "Barkamol avlod" markazi mavjud bo'lib, ularda jami 400 ming nafardan ortiq pedagog xodim faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash bo'yicha 5 ta davlat pedagogika instituti, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha 14 ta hududiy institut faoliyat ko'rsatmoqda.

Pedagog kadrlar malakasini oshirishni nazorat qilish bo'limi negizida, Xalq ta'limi vazirligining Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limini tugatish hisobiga qisqaradigan 2 ta shtat birligini o'tkazishni inobatga olgan holda, 5 ta shtat birligidan iborat Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirishni tashkil etish va nazorat qilish boshqarmasi tashkil etilsin

## Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida

- ▶ Istiqbolli ilmiy-pedagogik kadrlarni, birinchi navbatda, muhandislik-texnika va arxitektura ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining rivojlangan davlatlar, xususan, Janubiy Koreya, Yaponiya va Germaniyada 2-3 oylik kurslarda o'zaro hamkorlik bo'yicha tuzilgan shartnomalar, homiylik va xalqaro tashkilotlar grantlari mablag'lari hisobidan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining chet elda stipendiatlarning malakasini oshirish, stajirovka o'tash va ta'lim olishini tashkillashtirish "Iste'dod" jamg'armasi orqali mutaxassisligi bo'yicha yangi bilimlarni egallashga yo'naltirilgan malaka oshirishlarini tashkil etish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga yetakchi xorijiy mutaxassislarni muntazam ravishda jalb etish.

Respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-noyabrdagi PQ-3389-son qarori

Respublika oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun test sinovlarini o'tkazishning moddiy-texnik ta'minoti bilan bog'liq masalalarni ham butunlay qaytadan ko'rib chiqish taqozo etilmoqda. Zero, bugungi kunda test sinovlari natijalari 2000 yilda xarid qilingan 4 ta optik skaner orqali chiqarilishi, test materiallarini chop etishga mo'ljallangan ofis texnikasi (printer va kompyuterlar) ma'naviy va jismoniy jihatdan eskirib ketganligi oqibatida test sinovlari natijalari qariyb 15-20 kunga cho'zilib e'lon qilinishi bugungi kun talablariga javob bermaydi.

kirish test sinovlari natijalarini test o'tkazilgan kunning ertasiga Davlat test markazining rasmiy veb-saytida e'lon qilish

Davlat test markazining hududiy vakillari uchun zarur moddiy-texnik vositalar bilan to'liq jihozlangan alohida xona ajratilishini

Davlat test markazining byudjetdan tashqari mablag'lari hamda oliy ta'lim muassasalarining oshirilgan to'lov-kontrakt tushumlari (5 foizgacha miqdorda) hisobiga bir oy muddatda Davlat test markazi huzurida Davlat test markazi faoliyatini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etsin. Bunda Jamg'arma mablag'laridan quyidagi maqsadlar uchun foydalanilishi belgilab qo'yilsin

Давлат мактабгача таълим муассасалари ходимларининг айрим тоифалари меҳнатига ҳақ тўлашни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 28 февралдаги ПҚ-3571-сон қарори

1

- 2018 йил 1 мартдан бошлаб – мудирлар, тарбиячилар, методистлар, ўқитувчилар, дефектологлар, психологлар, мусиқа раҳбарлари ва тарбиячининг ёрдамчилари меҳнатида ҳақ тўлашнинг базавий тариа ставкаларини – 30 фоизга

2

- олий ёки ўрта махсус, касб-ҳунар педагогик маълумотли тарбиячининг ўринбосарлари меҳнатига ҳақ тўлашнинг базавий тариф ставкаларини – 20 фоизга

3

- давлат мактабгача таълим муассасаларини моддий рағбатлантиришнинг махсус жамғармасини шакллантиришга қонун ҳужжатларида белгиланган меҳнатга ҳақ тўлаш фондининг қатъий равишда 15 фоизи миқдорида қўшимча маблағлар ажратилишини таъминласин

# Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi PQ-3290-son qarori

akademik litseylardan uzoq joylashgan hududlardan qabul qilingan o'quvchilar belgilangan tartibda yotoqxonaga hamda ota-onalar to'lovi hisobiga (har oyda eng kam oylik ish haqining bir baravari miqdorida) xarajatlarni qisman qoplagan

holda, imtiyozli oziq-ovqat bilan ta'minlanadilar

faoliyati tugatiladigan akademik litseylarning bino va inshootlari, yer maydonlari, birinchi navbatda, amalda birlashtirilgan oliy ta'lim muassasasiga, oliy ta'lim muassasasida ehtiyoj mavjud bo'lmagan hollarda tegishli tuman (shahar)lar hokimliklariga operativ boshqaruv huquqi asosida beriladi

2017/2018 o'quv yilidan boshlab akademik litseylarda o'qish muddati ikki yil etib belgilanadi va ularga o'quv-metodik jihatdan rahbarlik qilish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan amalga oshiriladi